

## O'ZBEKISTONDA AGRAR SOHA RIVOJLANISHIDA AGROSANOAT MAJMUASINI O'RNI VA AHAMIYATI

**Bahodirova Sabina Sobir qizi**

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya(O'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7118065>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda agrosanoat sohasini rivojlanishi bugungi kundagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** agrosanoat majmuasi, qishloq xo'jaligi, kooperatsiya, dehqonchilik, fermer xo'jaligi, integratsiya.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В данной статье описывается роль и значение развития агропромышленного комплекса Узбекистана на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** агропромышленный комплекс, сельское хозяйство, кооперация, сельское хозяйство, фермерство, интеграция.

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE AGRO-INDUSTRIAL COMPLEX IN THE DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL SECTOR OF UZBEKISTAN

**Abstract.** This article highlights the role and importance of the development of agro-industry in Uzbekistan today.

**Keywords:** agro-industrial complex, agriculture, cooperation, agriculture, farming, integration

### KIRISH

Agrosanoat majmuasi-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va iste'molga yetkazib berish bilan bog'liq tarmoqlar yig'indisidir.

Agrosanoat majmuasining asosiy vazifasi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan va xalq iste'moli tovariga bo'lgan ehtiyojini samaraliroq qondirishdan iborat.

Mamlakatimiz agrosanoat majmuasini agrosanoat integratsiyasini va kooperatsiyasining mahsuli bo'lib, mustaqillik yillaridan boshlab yagona tizim sifatida shakllangan.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Agrosanoat majmuasining pirovard mahsulotini chiqarish va muomala sohasining turli bosqichlarida bilvosita 70 dan ortiq tarmoqlari ishtirok etadi. Bu agrosanoat tarkibiga texnologik va iqtisodiy jihatdan o'zaro qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarib, oxirini yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda bevosita ishtirok etadi. Bunda agrosanoat integratsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Agrosanoat integratsiyasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklar birlashgan holda ishlab chiqarishi faoliyati samaradorligi integratsiyasi bo'g'inlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga qishloq xo'jligi va unga tutash tarmoqlarning uzviy bog'liqligi agrosanoat integratsida namoyon bo'ladi. Natijada tarmoqlarning o'zaro hamkorligi oqibati sifatida agrosanoat majmuasi yuzaga keladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi aholisi oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90% ga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Shuningdek, bu soha aholining salmoqli qismining bandligini ta'minlab kelmoqda.

Qonunchilikda ham agrar etish joiz, 2017-yilning o'zida qishloq xo'jaligi sohasida oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi. 2 ta yangi qo'mita va 3 ta uyushma tuzildi. Mazkur ko'rsatkichlar joriy yilga qadar bir qadar o'sdi. Qishloq xo'jaligi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Bugun mamlakatimizda agrar sohada olib borilayotgan davlat siyosatidan ko'zlangan maqsad, avvalo, xalqimiz manfaatlarini ifoda etis, aholining farovon turmush tarsi kechirishini ta'minlashdan iboratdir.

## **TADVIQOT NATIJALARI**

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

## **MUHOKAMA**

Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligi oshirishda yanada chuqurlashtirganda davlat siyosatini to'g'ri yo'naltirgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Aholining oziq-ovqat xavsizligini ta'minlash;
- Qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- Soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish;
- Inteestilsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- Atrof-muhit muhofazasini ta'minlash;
- Qishloq xo'jaligida ilm-fan, axborot va maslahat xizmatlarini tizimini rivojlantirish;
- Investisiyalarni jalb qilish, resurs tejankor texnologiyalarini joriy etish va hokazolar.

## **XULOSA**

Bundan tashqari bugungi kunda mamlakatimizda agrar sohaning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun arzon kreditlar berilishi yo'lga qo'yilmoqda. Joriy yilda 2 milliard AQSH dolloriga teng kelgusi 5-7 yil ichida esa bundan 3-4 baravar ko'p meva sabzavot mahsulotlarini eksport qilish rejalashtirilgan. To'g'ri joriy yildagi mazkur reja bajarilishda bir qancha qiyinchiliklar yuz berdi, lekin bugun istiqbol zaminida o'zbek dehqonlariga cheksiz imkoniyatlar bergani barobarida unumdor yer va daromadli ekin mahsulotlarini yetishtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

## REFERENCES

1. I.A.Karimov Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti to'kin hayot manbayi T.O'zbekiston 1998-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi "Qishloq xo'jaligi to'g'risidagi qonuni "1998-yil 30-aprel.
3. A.O'lmasov.M.Sharifjonov Iqtisodiyot qonuni nazariyasi T.1995-YIL.
4. A.O'lmasov.A.Vohidov Iqtisodiyot nazariyasi Sharq.2006.
5. O'zbekiston M.E Birinchi jild Toshkent 200-yil.
6. O'zbekiston "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi Assanov.G Nabionov.M Safarov.I Toshkent 1994-yil
7. Ro'ziyev.A "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari "T.1990-yil
8. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
9. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)